

**2023 YILDA ANDIJON VILOYATIDA OIV BILAN ZARARLANGAN ONALARDAN  
TUG'ILGAN BOLALARNI PROVIRUS DNKSIGA TEKSHIRUVDAN  
O'TISHINING AHAMIYATI**

*To'lqinboyev Komiljon Rahmatjon o'g'li*

**Maqsad:** OIV zararlangan onalaridan tug'ilgan bolalarda OIV infeksiyasini erta diagnostikasi;

**Dolzarbli:** OIV bilan zararlangan onalardan tug'ilgan bolalarda OIV infeksiyasini tashxislashning qiyinligi, OIV bilan zararlangan onalarda ARVT effektivligini baholash.

**Muammoni hal qilish yo'llari:** Bola OIV infeksiyasini onasining homiladorlik davrida, tug'ilish jarayonida hamda ona suti bilan oziqlantirilganda yuqitirib olishi mumkin.

Ona organizmida ishlab chiqariladigan spetsifik (OIVga nisbatan paydo bo'ladigan) antitelolar homiladorlik davrida yo'ldosh orqali o'tib, bola tug'ilgandan so'ng uning qonida 18 oygacha saqlanib qoladi. SHu sababli, bu davrda bolaga serologik usulda aniq tashhis qo'yib bo'lmaydi. Bu davrda sun'iy usulda oziqlantiriladigan bolalarga OIV infeksiyasi yuqqanligi qonda provirus DNKni aniqlovchi PZR tahlilining ikkita musbat natijasi asosida taxmin qilinishi mumkin. OIV RNKsini aniqlash tavsiya etilmaydi, chunki homiladorlik vaqtida va bola tug'ilgandan keyingi o'tkazilgan ARVT profilaktika virusning ko'payishini sezilarli darajada kamaytiradi, bu OIV RNKsining konsentratsiyasining pasayishiga olib keladi. Bu bolani tekshirish paytida soxta-manfiy natijalar ehtimolini oshiradi.

OIV bilan zararlangan onadan tug'ilgan bolalarda OIV Provirus DNKsini aniqlash tavsiya etiladi:

- Xayotining birinchi 48 soatida;
- 1–2 oyda;
- 3–6 oyda.

Birlamchi musbat yoki birlamchi manfiy natijalar qayta tasdiqlanishni talab etadi. OIV infeksiyali onadan tug'ilgan bolaga yakuniy tashhis 18 oyga to'lganidan so'ng, OITSGa qarshi kurashish markazlarida komission tarzda qon olinib, IFA va IB tahlillari asosida qo'yiladi.

Markazimizda 2023 yilda OIV bilan zararlangan onalardan tug'ilgan bolalarni provirus DNKsiga -107 ta tekshiruv o'tkazilgan. O'tkazilgan tekshiruvlarda musbat natija aniqlanmagan.

**Xulosa:** OIV zararlangan onalaridan tug'ilgan bolalarda OIV infeksiyasini erta tashxislash imkoniyatini beradi, homiladorlik vaqtida va bola tug'ilgandan keyingi o'tkazilgan ARVT profilaktika samarador ekanligini ko'rsatadi.